

**YENGIL ALANGALANUVCHI VA YONUVCHI SUYUQLIKLAR
FAVQULODDA TO‘KILISHINI BARTTARAF ETISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Jumayev Sayfiddin Qodirovich

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi “Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi” kafedrasi boshlig‘i, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Ilashov Ziyoviddin Rahmatulla o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi “Aholi va hududlar muhandislik muhofazasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Kendjaboyev Doniyor Abdurasilovich

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Yong‘in bu yonish vaqtida massa va issiqlik almashinish jarayonidan tashqari vaqt va makonda rivojlanuvchi murakkab fizik-kimyoviy jarayondir. Bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq va yong‘in xususiyatlari bilan xarakterlanadi: yonish tezligi, harorat va h.k. hamda ko‘pchiligi tasodifiy bo‘lgan bir qator shartlar bilan aniqlanadi. Massa va issiqlik almashinuv hodisasi istalgan yong‘in uchun uning o‘lchovlari va paydo bo‘lish joyidan qat’iy nazar, o‘ziga xos umumiyligi hodisadir. Yong‘in aholiga nafaqat moddiy, balki ma’naviy zarar ham yetkazishga sabab bo‘ladi. Insonlar o‘limi, termik jarohatlanishlar va yongan mahsulotlar zaharidan zaharlanish kabilalar ham sodir bo‘lishi mumkin.

Bu esa o‘z navbatida, yong‘inni bartaraf qilish uchun talab qilingan yong‘in o‘chirish vositalarni uzatish jadalligi, yong‘in o‘chirish vaqtini hamda kuch va vositalarning ko‘p miqdorda jalb qilinishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun to‘kilgan neft mahsulotlarini tezda bartaraf etish masalasi dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Umuman olganda, gaz aralashmalari gaz yoki bug‘larni yoki eritmalaridan erigan moddalarni qattiq, g‘ovaksimon jism yordamida yutish jarayoni adsorbsiya deb nomlanadi. Yutilayotgan modda adsorbtiv, yutuvchi modda esa - adsorbent deb ataladi.

Adsorbsiya jarayonining o‘ziga xosligi shundaki – u selektiv va qaytar jarayondir. Jarayonning qaytar bo‘lishligi tufayli adsorbent yordamida bug‘-gaz aralashamalaridan bir yoki bir necha komponentlarni yutish, so‘ng esa maxsus

sharoitda ularni adsorbentdan ajratib olish mumkin. Ma'lumki, xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladigan adsorbentlar iloji boricha katta solishtirma yuzaga ega bo'lish kerak. Kimyo, oziq-ovqat va boshqa sanoatlarda faollangan ko'mir, silikagel, alyumogel, seolit, sellyuloza, ionitlar, mineral tuproq (bentonit, diatomit, kaolin) va boshqa materiallar adsorbent sifatida ishlatiladi.

Shuning uchun yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklarning favqulodda to'kilishini bartaraf etish maqsadida makkajo'xori qoldiqlaridan adsorptiv mahsulot sifatida foydalanishni tavsiya etiladi.



1-rasm. Makkajo'xori qoldiqlari

a) makajo'xori qoldiqlarining ko'rinishi; b) makajo'xori qoldiqlarining maydalangan ko'rinishi.

Makkajo'xori o'simligi O'zbekistonda va boshqa Osiyo mamlakatlarida muhim ekin sifatida keng assortimentga ega. Ushbu o'simlikda don hosilidan tashqari, boshqa maxsus elementlar ham mavjud bo'lib, ushbu elementlardan yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda foydalanish borasida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu o'simlikning ekin maydonlarida har yili tonnalab qolib ketuvchi qoldiqlari (so'tasi) qayta tiklanuvchi xom ashyo sifatida turli maqsadlar uchun adsorbent sifatida foydalanishga juda qulay ekanligi o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sapayev M.S., Qodirov F.M. "Favqulotda vaziyatlarda hayot faoliyati xavfsizligi" Ma'ruzalar matni Toshkent-2013.
2. Кузин С.Г., Пятлин А.В., Суханов С.Г. "Организация работы судебно-медицинской службы в ликвидации последствий техногенных катастроф и внезапно возникших чрезвычайных ситуаций" журнал: Экология Человека



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th June - 2024

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

Учредители: Северный государственный медицинский университет ISSN: 1728- 0869

3. Robinson W H Greenbank L A An extrusion energy absorber suitable for protection of structures during an earthquake // Earthquakes Engineering and Structural Dynamic.2014 .—№3.



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings